

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MATEMATIKA FANIDAN TURLI KO'RINISHDAGI MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH****Bekmurodova Gulbaxor Menglikulovna***Toshkent shahri Olmazor tumani**261-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematika fanidan masalalar yechishga o'rgatish, sodda masalalarning asosiy turlarini boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun taqsimlashni qo'llash haqida to'liq fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *matematika, sodda masala, didaktik vositalar, proporsional, struktura, arifmetik amallar.*

Masalalar yechishdagi hisoblash ishlari sonli masalalarni yechish malakalarini shakllantirish mashq qilishga nisbatan kamroq vaqtni talab qiladi. Masalan, biz o'quvchilarga masalaning yechimlari haqida to'liq tushuncha berganimizdan so'ng, bu yechgan masalamizning o'quvchi tushunib yecha olishi uchun biz masalaning eng ratsional qismini aniqlab va shu usulda masala yechishga ko'proq o'quvchini jalb qilishimiz kerak.

Matematik masalalar sodda va tarkibli masalalarga ajratiladi. Sodda masalalar bitta amal bilan yechish mumkin bo'lgan masalalar jumlasiga kiritiladi. Matematikani o'qitish sistemasida sodda masalalar juda muhim rol o'ynaydi. Sodda masalalarni yechish yordamida matematika boshlang'ich kursining markaziy tushunchalaridan biri - arifmetik amallar haqidagi tushuncha va boshqa bir qator tushunchalar shakllanadi.

Dastlabki tayyor masalalarni yechayotganda bolalar masala va uning yechilishiga doir terminologiyani o'zlashtirishlari ustida ishlashi kerak. Shu sababli ham boshlang'ich sinf matematika darslarida masalalar yechish usullarini to'g'ri tashkil etish, undan oqilona foydalanish, masalaning turli shakllarini tashkil etish va unda turli didaktik vositalardan imkon darajasida foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmog'i maqsadga muvofiqdir.

Sodda masalalarni yecha olish o'quvi o'quvchilarning murakkab masalalarni yechish o'quvini egallashlarida tayyorgarlik bosqichi bo'ladi, chunki murakkab masalalarni yechish qator sodda masalalarni yechishga keltiriladi. Sodda masalalarni yechayotganda masala bilan va uning tarkibiy qismlari bilan birinchi bor tanishiladi. Sodda masalalarni yechish munosabati bilan o'quvchilar masala ustida ishlashning asosiy usullarini egallaydilar. Shu sababli o'qituvchi har bir turdagi sodda masalalar ustida qanday ish olib borishni bilishi juda muhimdir.

Shuningdek yig'indini va qoldiqni topishga doir masalalar bolalar duch keladigan dastlabki masalalar bo'lgani uchun bu masalalar ustida ishlash qo'shimcha qiyinchiliklar bilan bog'liq hisoblanadi. Bunda o'quvchilar masala va uning qismlari bilan tanishadilar va masala ustida ishlashning ba'zi umumiy usullarini o'zlashtiradilar.

Yig'indi va qoldiqni topishga doir masalalar bir vaqtning o'zida kiritiladi, bundan tashqari, bu masalalarni qarama-qarshi qo'yilganda, ularni yechish o'quvi yaxshiroq shakllanadi. Yig'indi va qoldiqni topishga doir masalalarni yechishga tayyorgarlik bu to'plamlar ustida amallar bajarishdir. Umumiy elementlari bo'lmagan ikki to'plamni

birlashtirish va to‘plamning qismini chiqarish. To‘plamlarni birlashtirish amali qo‘shish amaliga, to‘plamning qismini chiqarish esa ayirish amaliga muvofiq kelishini bolalar yaxshi o‘zlashtirishlari lozim.

Xulosa: Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, masalalarni yechishda o‘quvchilar shu ko‘rsatilgan topshiriqlarni qat‘iy belgilangan tartibda ko‘p marta bajarsalar, u holda ularda masala ustida topshiriqlarga muvofiq ravishda ishlash usuli sekin-asta shakllanadi. Bu esa kelgusida bolalar masalalarni mustaqil hal qila olishlariga imkon beradi.

#### ADBIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alixonov S. "Matematika o‘qitish metodikasi". Toshkent.: "O‘qituvchi" 2001.
2. M.E.Jumayev, Z.G'.Tadjiyeva, O.Toshmetova, "Boshlang‘ich sinflarda matematikadan fakultativ darslarni metodikasi Toshkent 2005.
3. Jumayev M.E. Matematika o‘qitish metodikasidan praktikum" Toshkent.: O‘qituvchi, 2004.
4. Jumayev M.E. Bolalarda matematika tushunchalarni shakllantirish nazariyasi. - T.: "Ilm-Ziyo", 2005.